

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI: HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING POYDEVORI

Tohirova Malikabonu

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlari tushunchasi, ularning kelib chiqish manbalari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy huquqiy tizimdagi oʻrni keng yoritilgan. Shuningdek, inson huquqlarini taʼminlash va himoya qilishning milliy va xalqaro mexanizmlari tahlil qilinadi. Inson huquqlariga rioya etish demokratik jamiyat barqarorligi va qonun ustuvorligining muhim omili ekanligi ilmiy asosda koʻrsatib beriladi.

Kalit soʻzlar: Inson huquqlari, shaxs erkinligi, demokratiya, huquqiy davlat, xalqaro huquq, adolat, tenglik, Konstitutsiya.

KIRISH

Inson huquqlari tushunchasi oʻzining zamonaviy maʼnosida Yevropadagi Uygʻonish va Reformatsiya davriga borib taqaladi. Bu davr oʻrta asrlarda hukmronlik qilgan feodal avtoritarizm va diniy konservatizmning asta-sekin yoʻqolib borishi bilan tavsiflanadi. Aynan shu jarayonda yevropalik olimlar diniy axloqning dunyoviy shaklini ishlab chiqishga harakat qildilar. Inson huquqlari va erkinliklari gʻoyalari insoniyat tarixining turli bosqichlarida mavjud boʻlgan boʻlsa-da, ular zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasiga toʻliq mos kelmagan. Tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, anʼanaviy jamiyatlarda adolat, siyosiy qonuniylik va farovonlik tushunchalari rivojlangan boʻlib, ular inson qadr-qimmati va farovonligini taʼminlashga qaratilgan edi, biroq bu tizimlar inson huquqlarining hozirgi shakliga muqobil boʻlgan. Keng tarqalgan fikrga koʻra, inson huquqlari tushunchasi Gʻarbda shakllangan boʻlib, boshqa qadimgi madaniyatlarda muhim axloqiy meʼyorlar mavjud boʻlganiga qaramay, aynan inson huquqlari tushunchasi yetishmagan. Baʼzi tadqiqotchilar hatto “huquq” soʻzining oʻzi XV asrgacha deyarli hech bir tilda uchramaganini qayd etadilar. Oʻrta asrlardagi erkinlik xartiyalari, jumladan ingliz Buyuk ozodlik xartiyasi, inson huquqlariga oid hujjat emas, balki davlat ichidagi muayyan siyosiy va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi cheklangan bitim boʻlgan. Keyinchalik ushbu hujjatlar inson huquqlari haqidagi zamonaviy munozaralarning dastlabki bosqichlarida qayta talqin qilina boshlandi. Ayrim olimlar esa shaxsiy huquqlarni qisman himoya qilgan normalarni XIII asrda qabul qilingan ayrim hujjatlarda ham uchratish mumkinligini taʼkidlaydilar. Yevropada inson huquqlari rivojlanishining muhim manbalaridan biri sifatida 1525-yilda Germaniyada yuzaga kelgan “Oʻn ikki maqola” hujjati koʻriladi. Ushbu hujjat

islohot harakati va dehqonlar urushi sharoitida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda dehqonlarning o‘z huquqlari uchun ilgari surgan talablari aks etgan. Unda vijdon erkinligi alohida ta’kidlangan bo‘lib, bu huquq “inson huquqlari” atamasi hali shakllanmagan davrda ham muhim masala sifatida muhokama qilingan. XVII asr boshlarida baptist ilohiyotshunoslar vijdon erkinligini faol himoya qilgan asarlar yaratdilar. Bu g‘oyalar keyinchalik diniy bag‘rikenglik haqidagi qarashlarning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shu davrda Amerika mustamlakalarida diniy erkinlikni ta’minlash uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo‘lib, turli diniy ozchiliklar u yerda boshpana topgan. Mustaqillik Deklaratsiyasi, AQSh Konstitutsiyasi va Huquqlar to‘g‘risidagi Bill ushbu an‘analarni huquqiy jihatdan mustahkamladi va keyinchalik bu hujjatlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining yaratilishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. “Inson huquqlari” tushunchasi atamaviy jihatdan ilk bor Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida mustahkamlandi. Biroq unga olib kelgan jarayon ancha oldin boshlangan bo‘lib, Buyuk ozodlik xartiyasi, Angliya va Amerika Huquqlar Billari bu yo‘ldagi muhim bosqichlar hisoblanadi. XIX asr va XX asr boshlarida inson huquqlari tushunchasi yanada rivojlandi. Faylasuflar universallik g‘oyasini kengaytirdilar, inson huquqlari tushunchasi ijtimoiy va siyosiy fikr markaziga aylandi. Shu davrda inson huquqlari bilan bog‘liq eng muhim muammolardan biri qullik masalasi bo‘ldi. Qator davlatlarda qullik bekor qilinib, tenglik va erkinlik tamoyillari huquqiy jihatdan mustahkamlandi. XX asrda sotsialistik harakatlar ta’siri ostida fuqarolik va siyosiy huquqlarga ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar qo‘shildi. Mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy ta’minot olish kabi huquqlar inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida tan olinib boshlandi. Shu davrda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ilk xalqaro nodavlat tashkilotlar ham vujudga keldi. Ikkinchi jahon urushi va totalitar tuzumlar inson huquqlari sohasida tub burilish yasadi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarini xalqaro miqyosda e’tirof etgan eng muhim hujjatga aylandi. Unda inson huquqlari erkinlik, adolat va tinchlikning asosi sifatida e’lon qilindi hamda davlatlarning o‘z fuqarolari oldidagi majburiyatlari belgilab berildi. Keyinchalik Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktlar qabul qilinib, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlari yaratildi. Ushbu hujjatlar inson huquqlarini milliy huquq tizimlariga tatbiq etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda inson huquqlari doirasi doimiy ravishda kengayib borib, yangi huquqlar bilan boyitilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inson huquqlari tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari, uning davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy global jarayonlar ta’siri ostida rivojlanish dinamikasini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Buning uchun bir nechta ilmiy metodlar majmuasi qo'llanildi. Avvalo, komparativ-huquqiy tahlil metodi asosida turli mamlakatlarda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishga oid huquqiy modellar solishtirildi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, demokratik tamoyillarning qaysi shaklda samarali ishlashi tahlil qilindi. Tarixiy-huquqiy yondashuv yordamida inson huquqlari tushunchasining tarixiy ildizlari, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, siyosiy tizimlar almashuvi davrida tutgan o'rni hamda huquqiy tafakkur evolyutsiyasi o'rganildi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy tahlil orqali inson huquqlariga oid xalqaro va milliy hujjatlarning ichki tuzilishi, undagi me'yorlarning mazmuni, asosiy tamoyillarning izchilligi hamda ularni mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlar tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodi inson huquqlarini davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlari bilan o'zaro bog'liq yaxlit mexanizm sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlarning, jumladan BMT, Yevropa Ittifoqi, YeXHT va Venesiya komissiyasining inson huquqlarini himoya qilish, demokratik institutlar faoliyatini rivojlantirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlashga doir tavsiyalari ham chuqur tahlil qilindi. Mazkur metodlar uyg'unligi inson huquqlarining zamonaviy davlatdagi rolini nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqotning muhim metodlaridan yana biri interdisziplinar yondashuv bo'lib, u inson huquqlarini faqat huquqiy tushuncha sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu metod orqali inson huquqlarining demokratik jarayonlarga ta'siri, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi normativ asos sifatidagi roli hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdagi ahamiyati keng qamrovda o'rganildi. Bu yondashuv ayniqsa globalashuv sharoitida inson huquqlari tizimining o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, tadqiqotda empirik-huquqiy tahlil metodi qo'llanilib, inson huquqlarining amaliy ta'minlanishini aks ettiruvchi faktlar, statistik ma'lumotlar, sud amaliyoti, davlat organlari qarorlari hamda xalqaro tashkilotlar reytinglari o'rganildi. Ushbu metod inson huquqlari normalarining real hayotda qay darajada amalga oshirilayotgani, ularning samaradorligi va fuqarolar hayotiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, inson huquqlari bo'yicha xalqaro indekslar, boshqaruv samaradorligi va shaffoflik ko'rsatkichlarining tahlili inson huquqlariga oid islohotlarning amaliy natijalarini ilmiy jihatdan baholashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki inson huquqlari va erkinliklari tizimi o'z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantig'iga ega. Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod“ bosqichi haqida ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.

Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta’siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro‘y berdi. Inson huquqlarining „uchinchi avlodi“ „hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e’tirof etilgan qoidaga ko‘ra bu huquqlar: tinchlikka bo‘lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo‘lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar. Insonning o‘z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zining moddiy ifodasini topgan:

- Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil);
- Huquq to‘g‘risidagi petitsiya (1628-yil);
- “Habea Cozpus AKT” (1679-yil);
- Huquqlar to‘g‘risidagi bill (1689-yil);
- Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (1996-yil) va boshqalar.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari sohasidagi eng muhim va xalqaro huquqga tamal toshini qo‘yib bergan xalqaro hujjat hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar alohida toifalarga ajratiladi. Har bir davlat o‘z konstitutsiyasi va qonunlari orqali ushbu huquqlarni kafolatlashga majbur. Inson huquqlarining ta’minlanishi jamiyatda ijtimoiy adolatni kuchaytiradi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi ham bu soha rivojida alohida o‘rin tutadi. 2006-yil 15-martda BMTning Bosh Assambleyasi Tashkilotning 170 ta a’zo davlatlari qo‘llab-quvvatlashi asosida ilgari faoliyat yuritgan Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi o‘rniga BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi №60/251-sonli rezolyutsiyani qabul qildi. Inson huquqlari bo‘yicha kengash — Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi hukumatlararo organ hisoblanib, butun dunyoda barcha inson huquqlarini umumiy hurmat qilish va himoya qilishga ko‘maklashish hamda inson huquqlari buzilishi bilan bog‘liq holatlarni ko‘rib chiqish, shuningdek, tegishli tavsiyalarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Inson huquqlari bo‘yicha kengash Jenevada joylashgan bo‘lib, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi kotibiyat vazifasini bajaradi. Kengash mutlaq ko‘pchilik ovoz bilan yashirin ovoz berish orqali 3 yil muddatga saylanadigan 47 davlatdan iborat. Inson huquqlari

bo'yicha kengash yil davomida uning e'tiborini talab qiladigan inson huquqlari sohasidagi barcha mavzuli masalalarni va vaziyatlarni muhokama qilish vakolatiga ega. Kengash fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga, rivojlanish huquqiga teng e'tibor berib, shuningdek, davlatlarga texnik yordam ko'rsatadi. Kengash o'z ishini belgilab olish, tartib va mexanizmlarni o'rnatish uchun bir qator qarorlar qabul qildi. Inson huquqlari bo'yicha kengash, shuningdek, BMTning maxsus ma'ruzachilar, maxsus vakillar, mustaqil ekspertlar va muayyan mamlakatlarda inson huquqlariga rioya qilishga taalluqli mavzuli masalalar yuzasidan monitoringni amalga oshiradigan, tadqiqotlar olib boradigan, maslahatlar va ochiq hisobotlarni taqdim etadigan ishchi guruhlardan tashkil topgan maxsus protseduralari bilan ham ishlaydi. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zo-davlatlari o'z vakolatlari muddati davomida inson huquqlari bilan bog'liq holatlarda universal davriy tekshiruvdan o'tkaziladi. Ijtimoiy va iqtisodiy kengashi (EKOSOS) bilan maslahatlashuvchi maqomga ega bo'lgan nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, milliy huquqni himoya qiluvchi muassasalar Inson huquqlari bo'yicha kengash ishida qatnashish va kun tartibidagi barcha bandlar bo'yicha chiqish qilish huquqiga ega. 2020-yil 13-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi delegatlari ko'pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta O'zbekiston Respublikasini BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'ziligiga uch yillik muddatga (2021–2023-yillar) sayladi.

MUHOKAMA

Muhokama jarayonlari olingan natijalarni inson huquqlari nuqtai nazaridan yanada chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, siyosiy va huquqiy tizimlarning barqarorligi eng avvalo shaxsning asosiy huquq va erkinliklari qay darajada ta'minlanishiga bog'liq. Rivojlangan davlatlar tajribasi jamiyatda huquqiy tizimlar statik emas, balki inson manfaatlari va ehtiyojlariga mos ravishda doimiy ravishda rivojlanib borishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, inson huquqlarining amalda ta'minlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Huquq va erkinliklarning real hayotda ishlashi faqat me'yoriy hujjatlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning ijrosi, davlat institutlarining huquqiy tamoyillarga sodiqligi hamda fuqarolarning o'z huquqlaridan xabardorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan huquqiy madaniyatning rivojlanishi inson huquqlarining samarali himoyasini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan yangi muammolar - sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida shaxs huquqlarini himoyalash, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, ekologik huquqlar, global iqlim o'zgarishi va migratsiya jarayonlari inson huquqlari sohasida yondashuvlarning doimiy takomillashtirilishini talab etmoqda. Ushbu jarayonlarda milliy va xalqaro huquqiy standartlarning o'zaro uyg'unlashuvi inson huquqlarini universal qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Inson huquqlari — bu shaxsning hayotiy ehtiyojlari, erkin yashashi, jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topishi, shuningdek jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan teng va adolatli munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan ajralmas huquq va erkinliklar majmuasidir. Ushbu huquqlar inson tug'ilgan paytdan boshlab unga tegishli bo'lib, hech bir holatda cheklanishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Inson huquqlari shaxs qadr-qimmati, sha'ni va erkinligini himoya qilishga xizmat qiladi hamda uning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Huquqiy davlat qurish jarayonida inson huquqlari ustuvor tamoyil sifatida e'tirof etiladi va davlat faoliyatining asosiy mezoniga aylanadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z faoliyatini aynan inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish tamoyiliga asoslangan holda olib borishi lozim. Inson huquqlari qonunlar orqali mustahkamlanib, amalda ta'minlangan jamiyatdagina haqiqiy demokratiya shakllanadi. Chunki huquqlari himoyalangan inson erkin fikrlaydi, ijtimoiy hayotda faol bo'ladi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi. — BMT, 1948-yil.
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. — BMT, 1966-yil.
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. — BMT, 1966-yil.
4. Donnelly J. *Universal Human Rights in Theory and Practice*. — Cornell University Press, 2013.
5. Freeman M. *Human Rights: An Interdisciplinary Approach*. — Polity Press, 2017.
6. Alston P., Goodman R. *International Human Rights*. — Oxford University Press, 2018.
7. Steiner H. J., Alston P., Goodman R. *International Human Rights in Context*. — Oxford University Press, 2020.
8. BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissariyati materiallari. — Rasmiy hisobotlar va tavsiyalar.
9. Saidov A.X. *Inson huquqlari: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: Adolat, 2019.
10. Yusupov F. *Inson huquqlari*. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2020.